

UZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
IKKINCHI SON FAKULTET VA GOSPITAL TERAPIYA, NEFROLOGIYA VA
GEMODIALIZ KAFEDRASI



**ICHKI KASALLIKLARDA SHOSHILINCH HOLATLAR
MODULINING ISHCHI O'QUV DASTURI**

Ta'lim sohasi: 910000 - Sog'liqni saqlash

Mutaxassislik: 5A510103 - Terapiya (ichki kasalliklar)

Umumiy o'quv soati –288 soat

Shu jumladan:

Seminar mashg'ulotlari –160 soat

Mustaqil ta'lim soati – 128 soat

TOSHKENT- 2023

Modulning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi 2020 yil "8" sentyabrdagi 236-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki kasalliklarda shoshilinch holatlar" modul dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

- Jabbarov O.O. - Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasini mudiri, t.f.d., professor
- Umarova Z.F. - Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasini dotsenti, t.f.n.
- Xodjanova Sh.I. - Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasini katta o'qituvchisi, PhD.

Taqrizchilar:

- Ichki taqrizchi:
Hamroev A.A. - Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-sonli ichki kasalliklar va endokrinologiya kafedrasini mudiri, t.f.d.
- Tashqi taqrizchi:
Munavvarov B.A. - Toshkent Davlat stomatologiya instituti 2-sonli terapevtik yo'nalishdagi fanlar kafedrasini dotsenti, PhD.

Modulning ishchi o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasi Kengashida muxokama etilgan va tasdiqlangan (2023-yil "26" -iyundagi "12" -sonli bayonnoma).

Kafedra mudiri, professor



Jabbarov O.O.

TTA magistratura bo'limi boshlig'i



Imamov A.A.

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i



Azizova F.X.

1. O‘quv moduli o‘qitilishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar.

“Ichki kasalliklarda shoshilinch holatlar” moduli magistr talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirib borish vazifalarini bajaradi.

2. Modulni o‘qitish davomida rejalashtirilgan natijalar

2.1. O‘quv modulning maqsadi:

O‘quv modulini o‘qitishdan maqsad – terapiya mutaxassisligidan magistraturada o‘qitishning maqsadi mutaxassis sifatida zamonaviy terapevtik amaliyotga, kerakli hajmdagi bilimga, mahoratga va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir.

2.2. O‘quv modulning vazifalari:

O‘quv moduli talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirib borish vazifalarini bajaradi.

2.3. Modul bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar.

Talaba:

- sog‘liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas’uliyati haqida;
- O‘zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (konsepsiya, tamoyillar, asosiy yo‘nalishlari) haqida;
- sog‘liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar haqida;
- sog‘liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari to‘g‘risida;
- tibbiyotning zamonaviy muammolari va rivojlanishining magistral yo‘nalishlari, ichki a‘zolar kasalliklari diagnostikasi va davolashning yangi texnologiyalari haqida;
- ichki kasalliklarda shoshilinch holatlarning epidemiologik ma‘lumotlari, etiologik va xavf omillarining ta‘siri, patogenezining zamonaviy nazariyalari, tasniflari, diagnostikaning, shu jumladan erta diagnostikaning zamonaviy usullari, turli bosqichlarda davolash sxemalari, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash organlarining terapevtik xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlar to‘g‘risida;
- ichki kasalliklarda shoshilinch holatlarni davolash jarayonida kompyuter texnologiyalarining o‘rni, asosiy elementlari, internet vositalari, axborotlar qidirish, ma‘lumotlarni saqlash haqida;
- operatsion tizimlar, elektron pochta, konferensiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish to‘g‘risida **tasavvurga ega bo‘lishi;**
- vrachlik amaliyotida «komanda» bo‘lib ishlash tamoyillarini;
- ichki kasalliklarda shoshilinch holatlarning zamonaviy laborator-instrumental va

funksional tekshirish usullarini;

- ichki kasalliklarda shoshilinch holatlarning epidemiologiyasi, etiologik va tahdid omillari, patogenezing zamonaviy teoriyasi, tasnifi, kechishining klinik variantlari, davolashning har xil bosqichlarida differensiyalangan kompleks terapiya, asoratlarini davolash, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasini o'tkazishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- terapevtik bemorlarni yuqori malakali so'rab-surishtirish, terapevtik bemorlarga zarur davolash-diagnostik tadbirlar hajmi va to'plamini aniqlash;

- terapevtik bemorlarga ayrim davolash va diagnostik muolajalarni mustaqil amalga oshirish, qo'shimcha tekshirish (laborator, morfologik, funksional, endoskopik, rentgen-radiologik, immunologik, mikrobiologik) natijalarining interpretatsiyasi, ichki a'zolar kasalliklari va ularning asoratlarini maslahat beruvchi poliklinika, terapevtik yo'nalishdagi statsonar, reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlarida kompleks individuallashtirilgan davolashni mustaqil amalga oshirish;

- ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirish maqsadida klinik audit o'tkazish ***malakalariga ega bo'lishi***;

- qabul qilingan tasniflar asosida dastlabki, klinik va yakuniy tashxisni shakllantirish, zamonaviy tekshirish usullari xulosalarini tahlil qilish;

- ichki kasalliklarda shoshilinch holatlarida individual, kompleks davolash buyurish ***kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak***.

3. Modul tuzilmasi

3.1. Modul yuklamasi va o'quv ishlari turlari

Semestr	Umumiy yuklama hajmi	Ma'ruza (soat)	Amaliy (seminar) mashg'ulot (soat)	Laboratoriya mashg'uloti (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Nazorat turi	Kredit (hajmi)
V	288	-	160	-	128	JN, ON, YAN	8
Jami:	288	-	160	-	128		8

3.2. Ma'ruza mashg'ulotlari.

Modul bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

3.3. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarini tashkil etish

№	Seminar mashg'ulotlari mavzulari	Dars soatlari hajmi
1-semestr		
1	YURAK QON-TOMIR KASALLIKLARIDA SHOSHILINCH HOLATLAR	
1.1	To'satdan yuz bergan koronar o'lim (Yurakning birlamchi to'xtashi). Ta'rifi. Xavf omillari. Etiologiyasi. Patogenezi. Klinik	4

	belgilari. Differensial diagnostikasi. Shoshilinch tibbiy yordam. Reabilitatsiyasi.	
1,2	O'tkir koronar sindrom ta'rifi. Etiologiyasi. Patogenezi.	4
1,3	Nostabil stenokardiya. Nostabil stenokardiyaning klinik variantlari. Klinikasi. Diagnostikasi. Differensial diagnostikasi. Shoshilinch tibbiy yordam. Miokard infarkti. Etiologiyasi. Tasnifi. Klinik ko'rinishlari. Diagnostikasi. Differensial diagnostikasi. Shoshilinch tibbiy yordam	4
1,4	Miokard infarkti. Etiologiyasi. Tasnifi. Klinik ko'rinishlari. Diagnostikasi. Differensial diagnostikasi. Shoshilinch tibbiy yordam	4
1,5	Yurak ritmining buzilishi. Ta'rifi. Etiologiyasi. Patogenezi.	4
1,6	Supraventrikulyar paroksizmal taxikardiya. Qorinchalar paroksizmal taxikardiyasi.	4
1,7	Bo'lmachalar va qorinchalar fibrilyatsiyasi. Morgani-Adams-Stoks xuruji.	4
1,8	Atrioventikulyar blokadalar. Yurak ritmining buzilishida shoshilinch tibbiy yordam.	4
1,9	Yurak o'tkir yetishmovchiligi ta'rifi. Sababi. Patogenezi. Klinik variantlari. Klinik ko'rinishi.	4
1.10	Yurak astmasi, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam. O'pka shishi, diagnostikasi va differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
1.11	Gipertonik xuruj. Ta'rifi. Etiologiyasi. Patogenezi. Tasnifi. Klinikasi. Diagnostikasi va differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
2	O'PKA ARTERIYASI TROMBOEMBOLIYASI.	
2.1	O'pka arteriyasi tromboemboliyasi. Ta'rifi. Etiologiyasi. Xavf omillari. Patogenezi. Klinikasi.	4
2.2	O'pka arteriyasi tromboemboliyasi diagnostikasi va differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
3	GIPERTONIK XURUJ	
3.1	Gipertonik xuruj. Ta'rifi. Etiologiyasi. Patogenezi. Tasnifi. Klinikasi.	4
3.2	Gipertonik xuruj diagnostikasi va differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam	4
4	O'TKIR TOMIR YETISHMOVCHILIGI	
4.1	O'tkir tomir yetishmovchiligi. Ta'rifi. Sabablari.	4
4.2	Hushdan ketish "Sinkopal holat", etiologiyasi va patogenezi, klinik belgilari.	4
4.3	Kollaps, etiologiyasi va patogenezi, klinik belgilari.	4

4.4	O'tkir tomir yetishmovchiligida shoshilinch tibbiy yordam.	4
5	NAFAS TIZIMI KASALLIKLARIDA SHOSHILINCH HOLATLAR	
5.1	Bronxial astma. Ta'rifi. Sabablari. Bronxial astma o'tkir xuruji.	4
5.2	Astmatik holat, patogenezi, klinikasi, asoratlari, diagnostikasi va differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
5.3	O'tkir nafas yetishmovchiligi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi va differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
6	SHOK HOLATLARI	
6.1	Shok. Ta'rifi. Sabablari. Patogenezi. Shok bosqichlari.	4
6.2	Shok klinikasi. Klinik variantlari. Diagnostikasi, differensial diagnostikasi.	4
6.3	Kardiogen shok, etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik ko'rinishi, diagnostikasi va differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
6.4	Anafilaktik shok, etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik ko'rinishi, diagnostikasi va differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam	4
7	KOMALAR	
7.1	Koma. Ta'rifi. Etiologiyasi. Patogenezi. Tasnifi.	4
7.2	Gipoglikemik koma, klinik belgilari, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
7.3	Giperglikemik koma, klinik variantlari, klinik belgilari, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
7.4	Jigar komasi, klinik belgilari, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
7.5	Uremik koma, klinik belgilari, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
8	O'TKIR ALLERGOZLAR. O'TKIR TOKSIKOALLERGIK REAKSIYALAR	
8.1	O'tkir allergozlar, ta'rifi. Etiologiyasi. Patogenezi. Tasnifi. O'tkir krapivnitsa, ta'rifi, klinik belgilari, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
8.2	Angionevrotik shish (Kvinke shishi), ta'rifi, klinik belgilari, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
8.3	O'tkir toksikoallergik reaksiyalar, ta'rifi.	4
8.4	Stivens-Djonson sindromi, sabablari, klinik belgilari, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
8.5	Lael sindromi, sabablari, klinik belgilari, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam.	4
9	O'TKIR ZAHARLANISHLARDA SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM	

9.1	O'tkir zaharlanishlar (intoksikatsiyalar), ta'rifi, etiologiyasi, zaharli moddalar tasnifi. Zaharli moddalarning tanaga tushish yo'llari. O'tkir zaharlanish bosqichlari.	4
9.2	O'tkir zaharlanish klinik belgilari, diagnostikasi, differensial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam, antidot davosi	4
10	ICHKI KASALLIKLARDA SHOSHILINCH HOLATLARNING ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH USULLARI	
10.1	Ichki kasalliklarda shoshilinch holatlarning zamonaviy diagnostika usullari, ularni o'tkazishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.	4
10.2	Ichki kasalliklarda shoshilinch holatlarni zamonaviy davolash usullari, ularning klinikada qo'llanilishi.	4
	Jami	160

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem. guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

4.1. Mustaqil ta'lim mavzulari

2-jadval

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Soatlar hajmi
1	Ichki kasalliklarda shoshilinch holatlardan test savolarini tayyorlash.	7
2	Qandli diabet kasalligida qondagi qand miqdorini aniqlashning ekspress usullari.	7
3	Qandli diabetda shoshilinch holatlarning kechish xususiyatlari.	7
4	Qandli diabetda gipertonik xurujning kechish xususiyatlari.	7
5	Homiladorlikda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shoshilinch holatlar.	7
6	Suvda cho'kishda shoshilinch tibbiy yordam.	7
7	Elektrotravmada shoshilinch tibbiy yordam.	7
8	Kuyishda shoshilinch tibbiy yordam.	7
9	Asfiksiyalarda shoshilinch tibbiy yordam.	7
10	Sovuq urishda shoshilinch tibbiy yordam.	7
11	Traxeostomiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.	7
12	Tireotoksik xuruj.	7
13	Ichki qon ketishda shoshilinch tibbiy yordam.	7
14	Pnevmotoroks turlari va ularda shoshilinch tibbiy yordam.	7
15	Biriktiruvchi to'qima kasalliklarida puls terapiya.	6
16	Nefrotik xurujda shoshilinch tibbiy yordam.	6
17	Qonning kislota-ishqor holati.	6
18	Organizmda suv-elektrolit almashinuvi.	6

19	Elektrokardiostimulyatsiya tushunchasi va turlari.	6
	Jami:	128

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi.

4.2. Modul bo‘yicha mustaqil ta’lim shakllari va ishlar turlari ro‘yxati

- taqdimotlar tayyorlash;
- o‘quv adabiyotlari bilan ishlash;
- ilmiy jurnallar bilan ishlash;
- internet ma’lumotlarini o‘rganish;
- bemorlar kuratsiyasi;
- navbatchilikda turish;
- vaziyatli masala va testlar tayyorlash;
- masofaviy ta’lim texnologiyasidan foydalanish.

4.3. Modul bo‘yicha mustaqil ta’limni tashkil etish uchun tavsiya etiladigan o‘quv uslubiy ta’minot

Ichki kasalliklar moduli bo‘yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg‘ulotlarida trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko‘nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatidan bajarish va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bayonnomalarida aks ettirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o‘quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko‘nikmalarni navbatchi shifokor pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va navbatchilik bayonnomlarida aks ettirish;
- davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan bemorlar kuratsiyasida ishtirok etish;
- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni, suhbat va ma’ruzalarni o‘tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning (fanning) bo‘limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha ishlar va ma’ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo‘naltirilgan vaziyatli masalalar echish va tayyorlash;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) echish;
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish, testlar tayyorlash va h.k.

Modul bo‘yicha kurs ishi.

Modul bo‘yicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

5. Modul bo'yicha talabalar bilimni baholash va nazorat qilish me'zonlari

Terapiya mutaxassisligi magistrleri bilimni baholashning reyting tizimi to'g'risida kafedra nizomi

Ushbu Nizom Toshkent tibbiyot akademiyasida magistrler bilimni baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom asosida tayyorlangan

I. Baholash turlari va shakllari

1.1. Magistrning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- **joriy baholash (JB)**, baholashning bu shakli har bir seminar mashg'ulotlarida amalga oshiriladi va uch xil ko'rinishda bo'ladi. Har bir seminarida magistrning faolligi (maks. 100%), uning nazariy bilimi (maks. 100%), test sinovi (maks. 100%). Ko'rsatilgan uchta ball ham moderator uchun jurnalning seminar mashg'ulotlari bo'yicha davomat va o'zlashtirish bandida qayd qilib boriladi.

Seminar oxirida har bir seminarida magistr to'plagan ballar yigindisining o'rtachasi topilib u JB katakchasiga yoziladi. Har bir mashg'ulotda barcha magistrler baholanishi shart.

- **oraliq baxolash (OB)**, baholashning bu shakli fanning ma'lum bir bo'lagi o'tib bo'lingandan so'ng (pulmonologiya, kardiologiya, gastroenterologiya va h.k.) amalga oshiriladi.

U og'zaki so'rov yoki test usulida o'tkazilishi mumkin. Og'zaki so'rov usulida magistrning nazariy bilimlari moderator va dastur direktori yoki kafedra mudiri ishtirokida baholanadi va unda magistrning muayyan savolga javob berish yoki muammoni yechish maxorati va qobiliyati aniqlanadi (100%). Test usuli qo'llanilganda esa dasturning shu bo'lagi asosida tuzilgan testlar asosida kafedrada test sinovi o'tkaziladi (100%).

Ushbu sinov natijasi moderator jurnalining seminar mashg'ulotlari bo'yicha davomat va o'zlashtirish bandidagi OB ni baholash uchun ajratilgan katakchada qayd qilinadi.

1.2. Magistrning amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash ikki bosqichda olib boriladi;

a) trener tomonidan magistrning rotatsiya davomidagi faolligi (100%) va amaliy ko'nikmalarni egallaganligi (100%), xar kuni protokolda (magistrning Lokbukidagi protokolda) baholanib boradi va har bir rotatsiyaning oxirida ushbu ikki baholarning o'rtacha qiymati moderator jurnalining magistrlik amaliyoti qismidagi har bir rotatsiya uchun ajratilgan JB katakchasida qayd etiladi;

b) har bir rotatsiyaning oxirida kafedra mudiri, dastur direktori, moderator va trener ishtirokidagi komissiya magistrning rotatsiya davrida egallagan amaliy bilimni (maks. 100%) va amaliy ko'nikmasini (maks. 100%) baholaydi. Ushbu baholarning o'rtachasini magistrlik amaliyoti qismidagi har bir rotatsiya uchun ajratilgan OB katakchasida qayd etiladi.

- **yakuniy baholash (YAB)**. Mutaxassislik fanlari bo'yicha YAB da magistrning bilim, ko'nikma va malakalari har o'quv yilining oxirida, shu o'quv yili davomida o'tilgan dastur asosida tuzilgan testlar yordamida akademiya test markazida o'tkaziladi.

1.3. Muayyan fan bo'yicha magistrning semestr (rotatsiya, yil) davomidagi o'zlashtirish

ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

No	Baholash turi		Maksimal ball	Koeffitsient	Saralash bali
1.	Seminar mashg'ulotlarni baholash	JB	50	0,3	27,5
		OB	20	0,2	11,0
		YB	30	0,3	16,5
2.	Magistrlik ilmiy amaliyotini baholash	JB	50	0,3	27,5
		OB	20	0,2	11,0
		YB	30	0,3	16,5

Magistrning bilimni baholashda quyidagi na'munaviy me'zonlar inobatga olinadi:

Baho	O'zlashtirish ball	Magistrning bilim darajasi
A'lo «5»	95,1-100	Javob original, ijodiy yondoshish va qo'shimcha axborot ishlatilishi bilan, topshiriq dastur talablari darajasida bajarilgan. O'quv rejasining tegishli bo'limlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar to'liq hajmda, juda yuqori saviyada o'zlashtirilgan. Birlamchi material va kundalik ish bayonnomalarining to'liq hajmda mavjud bo'lishi.
	90,1-95	Javob ijodiy yondoshish va qo'shimcha axborot ishlatilishi bilan, topshiriq dastur talablari darajasida bajarilgan. O'quv rejasining tegishli bo'limlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar to'liq hajmda, o'zlashtirilgan. Birlamchi material va kundalik ish bayonnomalarining mavjud.
	86-90	Javob ijodiy yondoshish bilan, topshiriq dastur talablari darajasida bajarilgan. O'quv rejasining tegishli bo'limlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar to'liq hajmda, o'zlashtirilgan. Birlamchi material va kundalik ish bayonnomalarining mavjud.
Yaxshi «4»	80,1-85,9	Javob yoki bajarilgan topshiriq yaxshi saviyada; amaliy ko'nikmalar to'liq hajmda yaxshi saviyada o'zlashtirilgan, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik bo'yicha birlamchi material va kundalik ish bayonnomalarining to'liq hajmda mavjudligi.
	75,1-80	Javob yoki bajarilgan topshiriq yaxshi saviyada; amaliy ko'nikmalar yaxshi saviyada o'zlashtirilgan, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik bo'yicha birlamchi material va kundalik ish bayonnomalarining mavjudligi.
	71-75	Javob yoki bajarilgan topshiriq yaxshi saviyada; amaliy ko'nikmalar yaxshi saviyada o'zlashtirilgan, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik bo'yicha birlamchi material va kundalik ish bayonnomalarining mavjudligi, lekin biroz kamchiligi bor.
qoniqarli «3»	65,1-70,9	Javob yoki bajarilgan topshiriq o'rtacha saviyada, alohida nuqsonlar bilan. Amaliy ko'nikmalarning bir qismi o'rtacha

		darajada o'zlashtirilgan, kundalik ish bayonnomalari to'liq emas.
	60,1-65	Javob yoki bajarilgan topshiriq o'rtacha saviyada, xatoliklar bilan. Amaliy ko'nikmalarning bir qismi o'rtacha darajada o'zlashtirilgan, kundalik ish bayonnomalari to'liq emas.
	55-60	Javob yoki bajarilgan topshiriq past saviyada, xatoliklar bilan. Amaliy ko'nikmalarning bir qismi o'rtacha darajada o'zlashtirilgan, kundalik ish bayonnomalari to'liq emas.
qoniqarsiz «2»	0- 54,9	Javob yoki bajarilgan topshiriq talabning minimal darajasidan past va attestatsiya qilinmaydi. Amaliy ko'nikmalarning o'zlashtirishi past saviyada, to'liq bo'lmagan hajmda, birlamchi materiallar va kundalik ish bayonnomalari to'liq hajmda emas, qo'pol nuqsonlar bilan.

1.4. Magistr 55 balldan kam ball to'plagan holda shu mavzuni qayta topshirib ijobiy baho olishi shart.

1.7. Har bir baholash turlari (JB, OB, YAB) bo'yicha baholar 100% (ball) hisobidan aniq me'zonlar asosida qo'yib boriladi, o'rtacha qiymati hisoblanib, tegishli koeffitsientga ko'paytiriladi va ballari aniqlanadi.

1.8. Magistrning fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir baholash turlarida to'plagan ballar yig'indisiga teng bo'ladi.

II. Magistr bilimini baholash tartibi

2.1. Magistrning ballarda ifodalangan o'zlashtirishi quyidagicha baholanadi:

- 86-100 ball – «a'lo»
- 71-85 ball – «yaxshi»
- 55-70 ball – «qoniqarli»

Saralash bali 55 ballni tashkil qiladi.

2.2. JB, OB va YAB turlarida fanni o'zlashtira olmagan (55% dan kam ball to'plagan) yoki uzrli sabab bilan baholash turlarida ishtirok eta olmagan magistr larga quyidagi tartibda qayta baholashdan o'tishga ruxsat beriladi:

- qoldirilgan va o'zlashtirilmagan seminar mashg'ulot kelgusi darsga qadar guruh o'qituvchisiga qayta topshiriladi. 3 ta seminar mashg'ulot qoldirgan yoki ketma-ket qoldirilgan 2 ta amaliy mashg'ulotni topshirmagan magistr magistratura dekani ruxsati bilan qayta topshiradi. qayta topshirish bali 0,8 koeffitsient bilan aniqlanadi;
- tematik rotatsiya bo'yicha qoldirilgan bitta amaliyot kuni uchun magistr shu haftaning ichida trener, moderator yoki dastur direktori navbatchiligi kunida ular bilan birga qo'shimcha navbatchilikda turib, amaliyot bo'yicha ko'nikmani qayta topshiradi.
- tematik rotatsiyalar bo'yicha ikkita va undan ko'p amaliyot kunini qoldirgan magistr magistratura dekani ruhsati bilan qoldirilgan amaliyot kuniga teng ravishda shifoxonada navbatchilikda turadi. Bunda ham qayta topshirish 0,8 koeffitsient bilan aniqlanadi.
- Agar joriy baholashda to'plagan ballarning o'rtacha qiymati 55% dan kam bo'lsa, magistr dekanat ruxsati bilan 2 hafta ichida qayta topshiradi. Xuddi shu tarzda magistrga ONni ham 2 hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi va bali koeffitsientsiz qayd etiladi;

- semestr yakunida fan bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan magistrning o'zlashtirishi qoniqarsiz (akademik qarzdor) hisoblanadi. JB, OB va YAB turlarining xar bir bosqichida magistr 55%dan ortiq ball yig'ishi shart.
- YABda magistr 55%dan kam ball to'plamasligi kerak.
- akademik qarzdor magistr'larga semestr tugaganidan keyin dekan ruxsatnomasi asosida qayta o'zlashtirishi uchun 2 hafta muddat beriladi.

Shu muddat davomida o'zlashtira olmagan magistr belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan magistr'lar safidan chetlashtiriladi.

2.3. Magistrning reyting daftarchasida alohida qayd qilinadigan malakaviy amaliyot, ilmiy-pedagogik faoliyat, fan bo'yicha yakuniy Davlat attestatsiyasi va magistrantning ilmiy faoliyati bo'yicha o'zlashtirishi mazkur Nizomning 3.1 - bandiga muvofiq tizimda baholanadi. Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi «himoyadan o'tdi», «himoyadan o'tmadi» tizimida baholanadi.

2.4. O'quv rejasida muayyan semestr (o'quv yili)ga belgilangan fanlarning barchasi va magistrlik amaliyotdan saralash balidan yuqori ball to'plagan magistr'lar rektorning buyrug'i bilan kursdan kursga o'tkaziladi.

III. Reyting natijalarini qayd qilish tartibi

3.1. «Yakuniy nazorat» bilan tugallanadigan fanlardan magistr'larning fan bo'yicha o'zlashtirish qaydnomasi (JN, ON ballari) kafedra mudiri imzosi bilan 2 nusxada tayyorlanib, 1 - nusxasi magistratura dekanatiga, 2 - nusxasi test markaziga topshiriladi (shakli 2-ilovada keltirilgan). Test nazorati natijalari 2 nusxada chikarilib, test markazi raxbari imzosi bilan 1 nusxasi kafedraga, 2 nusxasi kafedradan olingan o'zlashtirish qaydnomasi bilan birgalikda dekanatga topshiriladi.

3.2. Magistrning fan bo'yicha baholash turlarida to'plagan ballari reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining «O'quv rejasida ajratilgan soat» ustuniga fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, to'plangan ball ustuniga magistrning mazkur Nizomning 3.1.-bandiga muvofiq 100 ballik tizimdagi o'zlashtirish bali qo'yiladi. «Fandan olingan baho» ustuniga esa magistrning fandan to'plagan umumiy baliga mos xolda «A'lo», «Yaxshi», «Qonikarli» deb yoziladi.

3.3. Magistrning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi «Reyting daftarchasi»da qayd etilmaydi.

4.5. Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda talabaniq fan bo'yicha to'plagan reytingi quyidagicha aniqlanadi.

7.Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.

7.1. Asosiy adabiyotlar

1. Gadaev A.G. Ichki kasalliklar. Darslik. Toshkent, 2019 y.
2. Моисеев В.С., Мартынов А.И., Мухин Н.А. Внутренние болезни. Учебник. Москва, 2018 г.
3. Матчанов С.Х., Абдураззакова Д.С. Неотложные состояния при

заболеваниях внутренних органов. Учебное пособие, Ташкент 2022 г.

7.2. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Кишкун А.А. Диагностика неотложных состояний. Руководство. Москва, 2018 г.
2. Якушин С.С., Никулина Н.Н., Селезнев С.В. Инфаркт миокарда. Руководство. Москва, 2018 г.
3. Мкртумян А.М., Нелаева А.А. Неотложная эндокринология. Руководство. Москва, 2019 г.
4. Ирвина Р.С., Риппе Дж. М., Лисбона А., Херда С.О. Процедуры и техники в неотложной медицине. Руководство. пер. с англ. – 2-е изд. Москва, 2015 г.
5. Чазов Е.И. Руководство по кардиологии: В 4-х т. Москва, 2014 г.
6. Терапевтический архив. Журнал.
7. Медицинский журнал Узбекистана.
8. Клиническая медицина. Журнал.
9. Вестник Ташкентской медицинской академии

7.3. Internet saytlari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.tma.uz.
4. www.med-info.ru
5. www.rosmedlib.ru
6. www.pubmed.com
7. www.ziyonet.uz
8. www.medlinks.ru

